

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025

oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 515 sahifa.
2025-yil, 22-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI	37
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI.....	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI.....	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA.....	203
Abduraxmonov Akmal Nurmatov o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Mdraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abdugarimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'lqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнара Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI.....	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS.....	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI.....	392
Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK.....	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ МРІ	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojjakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoir Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ.....	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
Saparov Islom O'Imasovich	



O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Saparov Islom O'lmasovich
mustaqil tadqiqotchi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning raqamli bozorlarida raqobat siyosatini yuritish masalalari hamda ularning shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyotda elektron tijorat, fintex xizmatlari va platformali biznes modellar faol rivojlanib, raqobat muhitining yangi qoidalarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, bozordagi yuqori konsentratsiya, ma'lumotlar asimmetriyasi va algoritmik narx belgilash usullari an'anaviy raqobat siyosatini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Maqolada O'zbekiston raqamli bozorlarida raqobat siyosatini yuritishning institutsional, iqtisodiy va innovatsion yondashuvlari yoritilgan hamda raqobatni samarali ta'minlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli bozor, raqobat siyosati, platforma kompaniyalari, ma'lumotlar asimmetriyasi, algoritmik narx belgilash, antimonopoliya.

Abstract. This article analyzes the formation of digital markets in Uzbekistan and the issues of implementing competition policy within them. In the digital economy, e-commerce, fintech services, and platform-based business models are actively developing, shaping new rules of the competitive environment. At the same time, high market concentration, information asymmetry, and algorithmic pricing create the necessity to improve traditional competition policy. The article highlights institutional, economic, and innovative approaches to conducting competition policy in Uzbekistan's digital markets and develops proposals aimed at ensuring effective competition.

Keywords: digital market, competition policy, platform companies, information asymmetry, algorithmic pricing, antimonopoly.

Аннотация. В данной статье проанализированы процессы формирования цифровых рынков в Узбекистане и вопросы реализации конкурентной политики в них. В условиях цифровой экономики активно развиваются электронная коммерция, финтех-услуги и платформенные бизнес-модели, формируя новые правила конкурентной среды. Вместе с тем высокая концентрация на рынке, асимметрия информации и алгоритмическое ценообразование обуславливают необходимость совершенствования традиционной конкурентной политики. В статье раскрыты институциональные, экономические и инновационные подходы к проведению конкурентной политики на цифровых рынках Узбекистана и разработаны предложения, направленные на обеспечение эффективной конкуренции.

Ключевые слова: цифровой рынок, конкурентная политика, платформенные компании, асимметрия информации, алгоритмическое ценообразование, антимонополия.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yilning 5-avgust kuni raqobatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi. Prezident sohadagi ishlarni davom ettirib, erkin bozor tamoyillarini ta'minlash hamda kadrlar tayyorlash bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berdi. Davlat rahbari iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, ayrim funksiyalarni bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, tovar, moliya va raqamli bozorlarda raqobat holatini doimiy tahlil qilib, tartiblarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritib borish vazifasini topshirdi [1].

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan — raqamli bozorlarda raqobat holatini doimiy tahlil qilish va tartiblarni takomillashtirish g'oyasi — monopoliyaga qarshi tartibga solishda yangicha yondashuvlarni taqozo etadi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Elektron tijorat, fintex xizmatlari, raqamli platformalar va marketpleyslar sonining ortib borayotgani raqobat muhitining yangi qoidalarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, raqamli bozorlarda konsentratsiya darajasining

o'sishi, ma'lumotlar asimmetriyasi va algoritmik narx belgilash usullari raqobat siyosatini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Maqolaning maqsadi — O'zbekiston raqamli bozorlarida raqobat siyosatini yuritishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilish hamda samarali takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Yevropa Ittifoqi, AQSH va Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasi raqamli platformalar faoliyatida tarmoq ta'siri, ma'lumotlar ustidan nazorat va algoritmik narx belgilashni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi. Yan Tirol, Joseph Schumpeter va Michael Porter nazariyalari raqamli bozorda raqobat siyosatini iqtisodiy hamda innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yan Tirol (Jean Tirole) raqamli bozorlarda tarmoq ta'siri, ma'lumotlar asimmetriyasi va platformalarning ikki tomonlama (two-sided markets) xususiyatlarini hisobga olmasdan an'anaviy raqobat siyosatini qo'llash yetarli emasligini ta'kidlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, raqobat siyosatini yuritishda platformalarning bozor ulushi emas, balki ularning ekotizimdagi ta'siri, ma'lumotlarga egalik qilishi va algoritmlar orqali bozorni boshqarishi asosiy mezon sifatida baholanishi lozim [2].

Joseph Schumpeterning raqobat nazariyasi "ijodiy vayronkorlik" (creative destruction) konsepsiyasiga asoslangan. Uning fikricha, raqobatning asosiy manbai — innovatsiyalar, ya'ni yangi texnologiyalar, biznes modellar va mahsulotlardir. Raqamli bozorlardagi platformalarning tez rivojlanishi hamda yangi xizmat turlarining paydo bo'lishi aynan Schumpeter nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [3].

Schumpeter nazariyasi raqobat siyosatini shakllantirishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. U an'anaviy raqobat tushunchasini faqat narx va bozor ulushi nuqtayi nazaridan emas, balki innovatsion faoliyat va texnologik yangilanish jarayonlari orqali baholash zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv raqobat siyosatini dinamik, innovatsiyaga rag'batlantiruvchi va bozordagi uzluksiz o'zgarishlarga moslashuvchan tarzda qurishni talab etadi. Shu jihatdan, raqamli platformalar faoliyatini tartibga solishda Schumpeter nazariyasi raqobatni cheklash emas, balki innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi va yangi bozor ishtirokchilari uchun imkoniyatlar yaratib beruvchi siyosatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Michael Porterning raqobat nazariyasi asosan "millatlar raqobatbardoshligi" va "Porterning besh kuch modeli" (Porter's Five Forces)ga tayanadi. Uning nazariyasiga ko'ra, bozordagi raqobat darajasi faqat kompaniyalar soniga emas, balki tarmoqqa kirish to'siqlari, mahsulotlarning o'rnini bosuvchilar, ta'minlovchilar hamda iste'molchilarning muzokara kuchiga bog'liq [4]. Raqamli bozorlarda ushbu model ayniqsa dolzarb, chunki agregatorlar va marketpleyslar iste'molchilar hamda ta'minlovchilar o'rtasidagi munosabatlarni qayta shakllantirmoqda.

Shu bois, raqobat siyosatini belgilashda platformalarning tarmoq ta'siri va bozor tuzilmasini to'liq tahlil qilish zarur. Raqobat siyosatini yuritishda esa monopoliyalarga qarshi choralar bilan bir qatorda innovatsion muhitni qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada raqamli platformalar faoliyatida raqobat siyosatining zamonaviy muammolari hamda ularni hal etishning samarali yo'llarini aniqlash va tahlil qilish jarayonida xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, nazariy xulosalar va amaliy tajribalardan foydalanildi. Shu bilan birga, muallif tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobat siyosati mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha mustaqil ilmiy qarashlar ishlab chiqildi. Tadqiqotda mantiqiy tahlil, tizimli yondashuv va analitik taqqoslash kabi ilmiy usullar qo'llanilib, raqamli bozorlardagi ustun mavqe, ma'lumotlardan foydalanish va bozorga kirish to'siqlarini baholashning ilmiy asoslangan yo'nalishlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli xizmatlar ko'lami kengaymoqda va bir qator sohalarda ko'plab kompaniyalar faoliyat yuritmoqda. Jumladan, yo'lovchilarni tashish (taksi) uchun buyurtmalarni joylashtirish va taksi xizmatlarini ko'rsatishga imkon beruvchi vositachilik (agregator) xizmatlari, tayyor ovqat va boshqa iste'mol mahsulotlari uchun buyurtmalarni joylashtirish va yetkazib berishga imkon beruvchi vositachilik (agregator) xizmatlari, onlayn to'lov tizimlari, bulutli texnologiyalar asosidagi xizmatlar hamda elektron savdo maydonchalari (marketpleys) xizmatlari bozorlarida faoliyat yurituvchi ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida raqobat kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda birgina onlayn to'lov tizimlari xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar soni 44 tani tashkil etadi [5]. Bu raqam mamlakatda raqamli moliyaviy



xizmatlar infratuzilmasining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu o'sish jarayonida bozorning yanada samarali rivojlanishini ta'minlash uchun bir qator strategik masalalarga e'tibor qaratish zarur.

Birinchiidan, yirik agregatorlar va platformalarning bozor ulushi yuqori bo'lishi raqobat siyosatini takomillashtirish, shaffof hamkorlik mexanizmlarini yaratish hamda yangi ishtirokchilar uchun qulay kirish shartlarini shakllantirish zaruratini ko'rsatadi. Masalan, Raqobat qo'mitasining "Payme" AJni onlayn to'lovlar bozorida ustun mavqega ega operator sifatida e'tirof etishi, bu yo'nalishda samarali nazorat va muvozanat mexanizmlarini yanada kuchaytirish imkonini beradi. Bu esa yirik platformalar resurslaridan oqilona foydalanish, integratsion infratuzilmani kengaytirish va foydalanuvchi ekotizimini yanada barqarorlashtirishga zamin yaratadi.

Ikkinchiidan, ma'lumotlar oqimini boshqarish va "big data" texnologiyalaridan foydalanish platformalarga individual xizmatlarni taklif etish, foydalanuvchi ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va raqobat muhitini sog'lom rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ma'lumotlarning strategik tahlili orqali bozor ishtirokchilari yanada samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishi, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashi va iste'molchi huquqlarini himoya qilishi mumkin [6].

Uchinchi yo'nalish — algoritmik narx belgilash va sun'iy intellektdan foydalanish jarayonlarini tartibga solish orqali raqobatni rag'batlantirishdir. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, algoritmik tizimlar narxlarini muvozanatli shakllantirish, bozor barqarorligini saqlash va iste'molchi manfaatlarini himoya qilishda muhim vosita bo'lishi mumkin [7]. Shu bilan birga, algoritmik boshqaruvning samarali huquqiy asoslari va monitoring tizimlarini joriy etish, sun'iy intellektdan foydalanishda ochiqlik va mas'uliyatni ta'minlash raqobatni yanada sog'lom yo'nalishda rivojlantirishga xizmat qiladi [8].

Natijada, raqamli platformalar bozorida raqobat muhitini mustahkamlash, yangi ishtirokchilarni jalb etish va innovatsion xizmatlarni qo'llab-quvvatlash uchun institutsional va texnologik yondashuvlar uyg'unligi zarur. Shu ma'noda, regulyator organlar faoliyati raqamli iqtisodiyot dinamikasiga mos tarzda yangilanib borayotganini ta'kidlash lozim.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli xizmatlar sohasida raqobat siyosatini amalga oshirishda zamonaviy iqtisodiy va texnologik tendensiyalarga mos yondashuvlar joriy etilishi muhim. Chunki raqamli bozorlar an'anaviy tovar bozorlaridan farqli ravishda tarmoq effektlari, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv va algoritmik texnologiyalar orqali tez o'zgaruvchan muhitga ega. Shuning uchun raqobatni baholashda faqat bozor ulushi ko'rsatkichiga tayanish emas, balki tarmoq ta'siri, foydalanuvchi ekotizimining barqarorligi, ma'lumotlarga egalik darajasi va algoritmik boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi ham hisobga olinishi lozim [9].

Kelgusida bu omillarni kompleks tarzda tahlil qilish, tarmoq effekti yuqori bo'lgan platformalarni qo'llab-quvvatlash hamda raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali O'zbekistonda raqamli raqobat siyosati yanada ilg'or bosqichga ko'tarilishi kutilmoqda.

Shu jihatdan, raqobat siyosatini shakllantirishda ilg'or xalqaro tajribalarga, jumladan, Yevropa Ittifoqining Digital Markets Act (2022) hamda OECDning "Competition in the Digital Era" (2023) tavsiyalariga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu hujjatlarda raqamli platformalarni baholashda yangi mezonlar joriy etilgan bo'lib, ular an'anaviy bozor tuzilmasi tahlilini raqamli ekotizimlar kontekstida qayta ko'rib chiqishni taklif etadi [10].

Demak, raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali raqobat siyosatini yuritish faqat bozor ulushini emas, balki ma'lumot oqimlari, algoritmik qarorlar va foydalanuvchi ekotizimlarining o'zaro bog'liqligini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Bu esa O'zbekistonda raqobatni muhofaza qilish va raqamli suverenitetni ta'minlashning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-sonli qarorining 2-ilovasi bilan Raqamli platforma operatorining ustun mavqeini hamda ustun muzokara kuchini e'tirof etish va raqobatning cheklanishiga olib keladigan harakatlarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi [11].

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan mazkur Nizomga asosan 8 ta xo'jalik yurituvchi subyekt 5 xil shakldagi raqamli platformalar bo'yicha ustun mavqega ega deb e'tirof etildi [12]. Jumladan: "YandexGo UB" MCHJ yo'lovchilarni tashish (taksi) uchun buyurtmalarni joylashtirish va taksi xizmatlarini ko'rsatishga imkon beruvchi vositachilik (agregator) xizmatlari bo'yicha; "Yandex Eats" MCHJ XK, "Uzum Tezkor" MCHJ XK va "Express24 APP" MCHJlar tayyor ovqat hamda boshqa iste'mol mahsulotlariga buyurtmalarni joylashtirish va yetkazib berishga imkon beruvchi vositachilik (agregator) xizmatlari bo'yicha; "Payme" AJ va "Click" AJ onlayn to'lov tizimlari xizmati bo'yicha; "Shoppe Group" MCHJ XK bulutli texnologiyalar asosidagi xizmatlar bo'yicha; "Uzum Market" MCHJ XK esa elektron savdo maydonchalari (marketpleyslar) bo'yicha raqamli platforma sifatida ustun maqomga ega deb e'tirof etildi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 18-moddasiga muvofiq, ustun mavqega ega deb e'tirof etilgan raqamli platforma operatoriga ma'lumotlar, texnologiyalar va raqamli mahsulotlardan foydalanish haqidagi talablarni belgilash orqali raqobatni cheklaydigan harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi. Shuningdek, ushbu qonunning 42-moddasida raqobat to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun moliyaviy sanksiyalar belgilangan [13].

Raqobat qo'mitasi tomonidan bugungi kunda ushbu yo'nalishda quyidagi ishlar olib borilmoqda: birinchidan, ustun mavqega ega deb e'tirof etilgan raqamli platformalarda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishlarini aniqlash va ularning oldini olish maqsadida monopoliyaga qarshi kompayens tizimi joriy etilmoqda; ikkinchidan, raqamli platformalarning iqtisodiy konsentratsiyasiga oid bitimlar uchun talablar yuzasidan nizom ishlab chiqilmoqda; uchinchidan, qolgan raqamli platformalar bo'yicha tizimli tahlil ishlari olib borilmoqda.

Shunga qaramay, sohaga xos ayrim yo'nalishlarda yanada takomillashtirishni talab qiladigan masalalar mavjud. Birinchidan, ustun mavqega ega platformalarning ayrimlari transmilliy kompaniyalar sifatida faoliyat yuritayotganligi ularning global ekotizimlar bilan chuqur integratsiyalashganini ko'rsatadi. Bu holat xalqaro hamkorlikni kengaytirish, huquqiy uyg'unlikni ta'minlash va xalqaro standartlarga asoslangan tartibga solish mexanizmlarini joriy etish zaruratini bildiradi. Bunday yondashuv O'zbekistonning raqamli bozoridagi ishtirokini global ekotizimlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, raqamli platformalarning ma'lumotlar ustidan nazorat o'rnatishi va algoritmik narx belgilash texnologiyalaridan foydalanishi foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish sohasida yangi imkoniyatlarni talab qiladi. Mazkur jarayonlarda ochiqlikni oshirish, xizmat shartlarini soddalashtirish va iste'molchilar manfaatlarini muvofiqlashtirish bozor ishonchini mustahkamlaydi. Shu maqsadda iste'molchi huquqlarini himoya qilish tizimini raqamli formatda rivojlantirish, xizmatlarning shaffofligini ta'minlaydigan interaktiv platformalarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "YandexGo UB" MCHJ kabi agregatorlarda algoritmik narx belgilash mexanizmlarini optimallashtirish, mavsumiy sharoitlarda dinamik narxlar o'rniga muvozanatli tariflarni joriy etish orqali foydalanuvchi manfaatlarini muhofaza qilish mumkin. Bunday jarayonlarni tahlil va monitoring qilish uchun monopoliyaga qarshi organlarning raqamli salohiyatini kuchaytirish dolzarbdir.

Uchinchidan, raqamli bozorlarda iqtisodiy konsentratsiyani baholashda an'anaviy yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Platforma kompaniyalari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi yangi metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi, ularning ta'sirini yanada aniq baholash imkonini beradi. Bunda foydalanuvchilar soni, ma'lumotlar oqimi, algoritmik ustunlik, tarmoq effekti va ekotizim integratsiyasi kabi ko'rsatkichlarning ahamiyatini hisobga olish raqamli bozorlarda iqtisodiy barqarorlikni prognozlashni yengillashtiradi. Ushbu yondashuv natijasida raqobat muhitini real baholash, kelajakdagi xavflarni erta aniqlash va sog'lom raqobatni ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Huquqiy jihatdan esa "raqamli konsentratsiya" tushunchasining aniqlashtirilgan ta'rifi, platforma kompaniyalari o'rtasidagi sheriklik va ma'lumot almashinuvi jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy asoslar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bu hujjatlar raqamli iqtisodiyotdagi konsentratsiya jarayonlarini tizimli kuzatish, risklarni erta bosqichda bartaraf etish hamda raqobatni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda raqamli moliyaviy xizmatlarning ommalashuvi bilan bir qatorda, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida ham yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Shu maqsadda Markaziy bank tomonidan xorijiy mamlakatlar tajribasiga asoslangan "Raqamli moliyaviy xizmatlar iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishga doir talablar to'g'risidagi nizom" loyihasining ishlab chiqilishi sohada ochiqlik va ishonchlilikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi [14].

Umuman olganda, raqamli bozorlarda raqobat siyosatini samarali yuritish istiqboli institutsional va huquqiy bazani mustahkamlash, raqobat organlarining salohiyatini oshirish va davlat hamda xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik tizimini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Shu yo'nalishdagi islohotlar raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga, innovatsion muhitning kengayishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining ortishiga xizmat qiladi.

Raqamli platformalardagi mavjud muammolarning yechimini ta'minlash uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish zarur. Raqamli platformalarda raqobatni cheklovchi harakatlarni aniqlash va jazolash mexanizmlarini aniq belgilash, shuningdek, algoritmik narx belgilash, ma'lumotlar asimmetriyasi va ustun muzokara kuchidan foydalanish holatlarini maxsus tartib asosida tartibga solish lozim. Shu bilan birga, texnik standartlar hamda ma'lumotlar almashinuvi (data portability) bo'yicha aniq talablarni joriy etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, monopoliyaga qarshi kompayens tizimini institutsional jihatdan kuchaytirish talab etiladi. Har bir ustun mavqega ega deb e'tirof etilgan raqamli platformada ichki monitoring va hisobot berish tizimini yo'lga qo'yish, kompayens natijalarini Raqobat qo'mitasi bilan onlayn integratsiya qilish, buzilish holatlarini tezkor aniqlash mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Uchinchidan, ma'lumotlar bozorini tartibga solish zarur. Platforma kompaniyalarining ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, ma'lumotlardan foydalanishning adolatli va mas'uliyatli me'yorlarini joriy etish raqamli raqobatni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, raqobat muhitini diversifikatsiya qilish kerak. Yangi raqamli platformalarning bozorga kirishi uchun soliq imtiyozlari va regulyativ yengilliklar yaratish, milliy startaplar va innovatsion kompaniyalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, grantlar va venchur mablag'larini kengaytirish zarur.



Beshinchidan, xalqaro tajribani joriy etish muhim. Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va AQSHning ilg'or tajribalari asosida raqamli platformalar ustidan nazorat va tartibga solish modellarini milliy sharoitga moslashtirish raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston raqamli bozorlarida raqobat siyosatining asosiy muammo va yechimlari

№	Asosiy muammolar	Tavsifi	Xalqaro tajriba asosida taklif etilayotgan yechimlar
1	Ustun mavqeni baholash mezonlari yetarli emas	Faqat bozor ulushiga qarash raqobat holatini to'liq aks ettirmaydi	Tarmoq ta'siri, ma'lumotlar asimmetriyasi va foydalanuvchi ekotizimlarini inobatga oluvchi mezonlarni joriy etish
2	Transmilliy platformalar ta'siri	Global kompaniyalar milliy bozorga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda	Xalqaro hamkorlik va huquqiy moslashuv mexanizmlarini ishlab chiqish
3	Ma'lumotlar ustidan nazorat	Katta ma'lumot to'plash raqobat ustunligini ta'minlamoqda	Ma'lumotlar bozorida shaffoflik va data portability talablarini joriy etish
4	Algoritmik narx belgilash xavflari	Algoritmik orqali yashirin kelishuvlar ehtimoli yuqori	Algoritmik nazorat va raqamli tahlil texnologiyalarini joriy etish
5	Iste'molchi huquqlarini himoya qilishda muammolar	Shaffof shartlar yo'qligi va ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish	Monopoliyaga qarshi komplayens va foydalanuvchi huquqlarini himoya qoidalarini kuchaytirish
6	Yangi ishtirokchilar uchun kirish to'siqlari	Yirik platformalar bozorga kirishni cheklamoqda	Milliy startaplarni rag'batlantirish, soliq va reguliyativ yengilliklar yaratish

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan tasniflarning ilmiy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobat munosabatlarini baholash an'anaviy mezonlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Faqat bozor ulushiga asoslangan baholash raqobat muhitining haqiqiy holatini to'liq ifoda etmaydi, chunki bozor ulushi raqobatning dinamik, innovatsion va texnologik jihatlarini qamrab olmaydi. M. Porterning "competitive advantage" nazariyasida kompaniya raqobatbardoshligi faqat hozirgi bozor ulushi bilan emas, balki uning resurs salohiyati, texnologiyaga yo'naltirilgan investitsiyalari hamda ekotizimdagi strategik pozitsiyasi bilan belgilanadi [15].

Global kompaniyalar milliy bozorlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda, bu ularning kapital, texnologiya va ma'lumotlar ustidan ustunlikka ega bo'lishi bilan izohlanadi. Xalqaro iqtisodiy nazariyada bunday holat transmilliy konsentratsiya yoki global bozor quvvati effekti sifatida talqin etiladi. OECD tahlillariga ko'ra (OECD, Competition Issues in Global Markets, 2021), raqamli transmilliy platformalar — Google, Amazon, Meta, Alibaba va boshqalar — ma'lumot resurslari hamda algoritmik orqali milliy bozorlarda narx shakllanishi, iste'molchi xatti-harakatlari va reklama oqimlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa raqobat siyosatini faqat milliy emas, balki transchegaraviy darajada muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda [16].

Katta ma'lumot (big data) raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida namoyon bo'lmoqda, chunki u kompaniyalarga bozor tendensiyalarini oldindan bashorat qilish, foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil etish va targetlash orqali resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shapiro va Varianning axborot iqtisodiyoti nazariyasida ma'lumot nusxalash qiymati past, ammo strategik qiymati yuqori bo'lgan resurs sifatida talqin etiladi; uni to'plagan subyektlar bozorni ma'lumot orqali nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'ladi [17].

Algoritmik orqali yashirin kelishuvlar (algorithmic collusion) ehtimoli yuqori, chunki sun'iy intellekt va narx belgilash algoritmik bozor ishtirokchilari o'rtasida bevosita aloqa o'rnatmasdan turib ham muvofiqlashtirilgan xulq-atvorni yuzaga keltirishi mumkin. Ariel Ezrachi va Maurice E. Stucke ta'kidlaganidek, algoritmik "uchinchi qo'l vositasi" sifatida faoliyat yuritib, kompaniyalarga raqiblarning harakatlarini kuzatish, narx o'zgarishlariga tezkor javob berish va narx raqobatini cheklash imkonini beradi. Bu holat raqobat siyosatida an'anaviy kartelni isbotlash mezonlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'diradi [18].

Shaffof shartlarning yo'qligi va ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish raqamli iqtisodiyotdagi asosiy raqobat muammolaridan biri hisoblanadi, chunki bu holatlar asimmetrik axborot muhitini yuzaga keltirib, iste'molchilar va raqiblar manfaatlariga zarar yetkazadi. OECDning "Consumer Data Rights and Competition" hisobotiga ko'ra [19], ma'lumotlardan noqonuniy yoki shaffof bo'lmagan tarzda foydalanish raqobatni izdan chiqaradi, chunki bu platforma kompaniyalariga asimmetrik ma'lumot ustunligini beradi va yangi ishtirokchilar uchun bozorga kirish to'siqlarini oshiradi. Shuningdek, Yevropadagi raqobat siyosati tadqiqotlarida (Crémer, de Montjoye & Schweitzer, 2019) ma'lumot shaffofligi raqobat adolatining asosiy sharti sifatida belgilanadi. Ma'lumotlar ustidan monopol nazorat raqobatni cheklaydi va foydalanuvchi tanlovini sun'iy ravishda qisqartiradi [20].

Yirik raqamli platformalarning bozorga kirishni cheklashi to'g'risidagi ilmiy qarashlar raqobat iqtisodiyotida tarmoq ta'siri, ma'lumotlarga eksklyuziv egalik va ekotizimga yopiq kirish siyosati bilan izohlanadi. M. Porter (1990) ta'kidlaganidek, bozorda ustun mavqega ega subyektlar "strategic barriers to entry" orqali raqiblar uchun to'siqlar yaratadi, raqamli iqtisodiyotda esa bu to'siqlar ma'lumot, platforma arxitekturasi va algoritmlar orqali shakllanadi. Shu bilan birga, Yevropadagi Digital Markets Act (2022) hujjatida bunday platformalar "gatekeeper" sifatida belgilanib, ularning ma'lumot va interfeys ustidan nazoratini cheklash choralari ko'rsatilgan [21].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli bozorlarda raqobat munosabatlarini baholashda an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar yetarli emas. Zamonaviy sharoitda raqobat ustunligi katta ma'lumotlardan foydalanish, algoritmlar orqali bozor xulqini boshqarish va platformaviy ekotizimni nazorat qilish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Shu sababli raqobat siyosatida yangi tahlil mezonlarini joriy etish hamda raqamli iqtisodiyotga mos institutsional yondashuvlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda raqamli bozorlar jadal sur'atlar bilan rivojlanib, elektron tijorat, fintex xizmatlari, agregator platformalar va bulutli texnologiyalar kabi yo'nalishlarda yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, yuqori bozor konsentratsiyasi, ma'lumotlar asimmetriyasi, algoritmik narx belgilash hamda transmilliy platformalarning global ta'siri raqobat siyosatini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotda raqamli bozorlarda raqobat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qator takliflar ishlab chiqildi. Xususan, raqamli platformalarda raqobatni cheklovchi harakatlarni tartibga solish va huquqiy-me'yoriy bazani mustahkamlash, monopoliyaga qarshi komplayens tizimini kuchaytirish, ma'lumotlar bozorida shaffoflikni ta'minlash, yangi raqamli platformalar va milliy startaplarni rag'batlantirish hamda xalqaro tajribani adaptatsiya qilish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, raqobat siyosatini amalga oshirishda faqat bozor ulushiga emas, balki tarmoq ta'siri, ma'lumotlarga egalik qilish, foydalanuvchi ekotizimlari va algoritmik boshqaruv omillariga ham e'tibor qaratish muhimdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hududidan tashqarida joylashgan platformalar bilan raqobatda milliy qonunchilikning samarali ishlashini ta'minlash iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobat siyosatini innovatsion va institutsional yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish milliy iqtisodiyotda barqaror hamda sog'lom raqobat muhitini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ҳузурида рақобатни ривожлантириш бўйича галдаги вазифалар муҳокамаси. 05.08.2024й. <https://president.uz/uz/lists/view/7439>
2. Tirole, J. (2014). Market Failures and Public Policy. Nobel Prize Lecture.
3. Schumpeter, J. A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers.
4. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
5. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўлов ташкилотлари реестри. <https://cbu.uz/uz/payment-systems/documents-license-pplicati/payment-organizations/>.
6. Khakimov A. Legal regulation of big data in e-commerce in Uzbekistan: current state and development prospects. International journal of artificial intelligence, vol 05, 2025. p. 279-295.
7. Bichler B. Algorithmic Pricing and Algorithmic Collusion. 23 Apr 2025. <https://arxiv.org/pdf/2504.16592v1>
8. MacKay A. & Weinstein S. Dynamic Pricing Algorithms, Consumer Harm, and Regulatory Response. <https://wustlawreview.org/2022/11/25/dynamic-pricing-algorithms-consumer-harm-and-regulatory-response/>
9. Competition in the Digital Era: Technology and Geopolitics in the XXI Century. <https://cordis.europa.eu/project/id/101116328#:~:text=The%20Competition%20in%20the%20Digital,semiconductors%2C%20cloud%20computing%20and%20space.>
10. The Digital Markets Act: ensuring fair and open digital markets (2022). https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/europe-fit-digital-age/digital-markets-act-ensuring-fair-and-open-digital-markets_en
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 1 майдаги 256-сон қарори. <https://lex.uz/ru/docs/6907023>
12. Рақамли платформа операторлари сифатида устун мавқеи эътироф этилган корхоналар рўйхати. <https://raqobat.gov.uz/raqamli-platforma-sifatida-ustun-mavqega-ega-deb-etirof-etilgan-korxonalar-rojhati/>
13. Ўзбекистон Республикасининг "Рақобат тўғрисида"ги Қонуни, 2023 йил 3 июль, ЎПҚ-850. <https://lex.uz/docs/6518381>
14. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий веб-саҳифаси. https://cbu.uz/oz/press_center/releases/2441748/
15. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
16. OECD (2021). Competition Issues in Global Markets. Paris: OECD Publishing.
17. Shapiro, C., & Varian, H. R. (1999). Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. Harvard Business School Press.



18. Ezrachi, A., & Stucke, M. E. (2017). *Virtual Competition: The Promise and Perils of the Algorithm-Driven Economy*. Harvard University Press.
19. OECD (2021). *Consumer Data Rights and Competition*. Paris: OECD Publishing.
20. Crémer, J., de Montjoye, Y.-A., & Schweitzer, H. (2019). *Competition Policy for the Digital Era*. European Commission Report.
21. European Commission (2022). *Digital Markets Act (Regulation (EU) 2022/1925)*. Official Journal of the European Union.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100